



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyul holatiga

RAQAMLAR:

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **356 taga o'sdi**

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,1 f.p. kamaydi.**

Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **2,6 mingtaga oshgan.**


2018 yilning yanvar-iyul oyida viloyatda 3,3 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 591 taga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,6 % ga kamaygan hamda ularning soni 680 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,9 mingga (10,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 29,9 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray (11,1 %), Zangiota (9,6 %) va Toshkent (7,0 %) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Toshkent viloyati	33606	100,0	29854	100,0
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	817	2,4	682	2,3
Ohangaron	772	2,3	686	2,3
Bekobod	924	2,7	795	2,7
Bo'stonliq	1639	4,9	1316	4,4
Bo'ka	1106	3,3	854	2,9
Quyichirchiq	866	2,6	785	2,6
Zangiota	3357	10,0	2860	9,6
Yuqorichirchiq	1927	5,7	1838	6,2
Qibray	3480	10,4	3305	11,1
Parkent	1676	5,0	1593	5,3
Piskent	877	2,6	804	2,7
O'rtachirchiq	1596	4,7	1464	4,9
Chinoz	1108	3,3	1057	3,5
Yangiyo'l	1646	4,9	1407	4,7
Toshkent	2404	7,2	2086	7,0
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	810	2,4	752	2,5
Olmaliq	1421	4,2	1338	4,5
Angren	2277	6,8	1787	6,0
Bekobod	979	2,9	923	3,1
Ohangaron	819	2,4	732	2,5
Chirchiq	1884	5,6	1779	6,0
Yangiyo'l	1221	3,6	1011	3,4


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatavotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 88,8 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 11,2 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,4 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,2 % savdoda, 19,0 % sanoatda, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,3 % qurilishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa va 26,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-iyul holatiga 3304 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (309 ta), Qibray (294 ta), Toshkent (215 ta) va Yangiyo'l tumanlariga (196 ta) to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (78 ta), Bekobod (89 ta), Ohangaron tumanlarida (101 ta) hamda Ohangaron (74 ta) va Bekobod shaharlarida (97 ta) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (743 ta), savdoda (648 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (524 ta) va qurilish (388 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (52 ta), axborot va aloqada (60 ta) va tashish va saqlashda (112 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyul holatiga.	2018 yil yanvar-iyul holatiga.
Jami:	2713	3304
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	597	524
Sanoat	698	743
Qurilish	199	388
Savdo	477	648
Tashish va saqlash	105	112
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	253	262
Axborot va aloqa	42	66
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	50	52
Boshqa turlari	292	509

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 avgust holatiga 26,5 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,7 mingta, oilaviy korxonalar – 1,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16,8 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,05 mingtani va boshqalar 2,5 mingtani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 719 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 150 taga yoki 26,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 420 tasi qo'shma korxonalar, 299 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Zangiota tumani 92 ta (12,8 %), Qibray tumani 81 ta (11,3 %) va Yuqorichirchiq tumani 72 ta (10,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bekobod 3 ta (0,4 %) Piskent va Bo'ka 6 tadan (0,8 %), Oqqo'rg'on tumanlari 9 ta (1,3 %), hamda Bekobod shahri 6 ta (0,8 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 449 ta (62,4%), savdoda 104 ta (14,5%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 63 ta (8,8 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 51 ta (7,1%) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,1%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 7 ta (1,0%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (1,7%), tashish va saqlashda 15 ta (2,1%) hamda qurilishda 17 ta (2,4%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 122 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80 taga ko'paygan yoki 2,9 baravarga oshgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 34 ta, Rossiya Federatsiyasi –20 ta, Turkiya Respublikasi –20 ta, Qozog'iston Respublikasi - 17 ta, va Janubiy Koreya Respublikasi - 7 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Buyuk Britaniya, Chexiya Respublikasi, Isroil davlati, Latviya Respublikasi, Moldova Respublikasi, Singapur Respublikasi, Turkmaniston, Angilya, Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Daniya Qirolligi, Tojikiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Vetnam Sotsialistik Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlarilar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-iyul holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 72 ta, savdoda 22 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 12 ta, qurilishda 6 ta, boshqa turlarda 4 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 3 ta, tashish va saqlash 2 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarida 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 24,3 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 13,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2,8 mingtasi (11,6 %) Qibray, 2,4 mingtasi (9,9 %) Zangiota, 1,8 mingtasi (7,4 %) Toshkent hamda 1,6 mingtasi (6,5 foizi) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24,3 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6,6 mingtasi (27,0 %) - savdoda, 5,6 mingtasi (22,8 %) - sanoatda, 3,2 mingtasi (13,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2,2 mingtasi (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,1 mingtasi (8,9 %) - qurilishda, 1,0 mingtasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 0,4 mingtasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqa sohasida va 2,8 mingtasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 3,1 mintaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 17,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (296 ta), Qibray (273 ta) va Toshkent tumanlarida (192 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ohangaron (65 ta), Bekobod hamda Nurafshon shahrida (87 tadan), Piskent (70 ta), Bekobod (88 ta), Ohangaron (89 ta) va Bo'ka tumanlarida (95 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (741 ta), savdoda (648 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (523 ta) va qurilishda (387 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (48 ta), axborot va aloqada (65 ta) hamda tashish va saqlashda (110 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 1977 tani tashkil etib, ulardan 1507 tasi yoki 89,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **10,3**%ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 38,8 % yoki 584 tasi sanoat, 19,4 % yoki 293 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 263 tasi savdo, 16,1 % yoki 242 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 13 tasi qurilish, 0,8 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 8 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 5,8 % yoki 88 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: X.Igamberdiyev